

**Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha\_12.12.2022 yil lot № 206044****SHARTNOMA**

Mirishkor tuman tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi, Б.М.Мухамаджонов (keyingi o'rnlarda Buyurtmachi deb ataladi) bir tomonidan va «Mirishkor Osiyo Malak» MCHJ nomidan Ustav (ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi direktor D.Berdiyeva (keyingi o'rnlarda Autsorser deb ataladi), ikkinchi tomonidan keyinchalik Tomonlar deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

**I. Shartnoma predmeti**

1.1. Autsorser Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha mazkur Shartnomaning

1.2-bandida ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Autsorser mazkur shartnomaning

1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab, u tugaguniga qadar har kuni Buyurtmachini **Umumi ovqatlanish** hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya-gigiena normalari va qoidalariga rioya etgan holda, Buyurtmachi bilan kelishilgan buyurtmalarni bajarish jadvaliga muvofiq ta'minlash majburiyatini, keyingi o'rnlarda Xizmatlar deb ataladi, o'z zimmasigu oladi.

1.3. Xizmat ko'rsatish muddati: **2022 yil «31» dekabrgacha**.

1.4. Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura imzolanib Buyurtmachi Autsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisob-raqamiga pul mablag'lari o'tkazgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

**II.Tomonlarning huquq va majburiyatları**

2.1. Autsorser quyidagi huquqlarga ega:

2.1.1. Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;

2.1.2. Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdanjihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

2.1.3. Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;

2.1.4. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlardan amalga oshirilishini talab qilish;

2.1.5. Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;

2.1.6. Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;

2.1.7. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

2.2. Autsorser quyidagilarga majbur:

2.2.1. Ijaraga olingan bino va inshootlari, jihozlardan maqsadli hamda oqilonan foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi, shuningdek, kommunal xaratjatlarini qoplashi;

2.2.2. Autsorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga qat'iy rioya etishi;

2.2.3. Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifatli ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga yetkazilishini ta'minlashi;

2.2.4. Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;

2.2.5. Shartnomani bekor qilish haqidagi buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzlusiz tashkil etishni ta'minlashi;

2.2.6. Xizmatlarni sifatli, mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;

2.2.7. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autsorser mazkur shartnoma shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi

bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rishi; 2.2.8. Xizmatlarning sisatsizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishga beriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariga javob bermasligi aniqlanganda, Autsorser zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;

2.2.9. Malakali, tajribali, qo'yilgan vazifani (xizmatni, ishni) amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan, shuningdek, belgilangan tartibda va muddatda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan) o'tgan xodimlarga (talab etilgan hollarda) xizmatlarni bajarish jarayoniga ruxsat etishi;

2.2.10. Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalariga, shuningdek, ichki tartibga rioya qilish majburiyatini yuklashi;

2.2.11. Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shaxsan bajarishi, mazkur Sharhnomaga shartlarini bajarishni uchinchi shaxsga topshirmasligi;

2.2.12. Mazkur sharhnomaga shartlarini bajarish doirasida Buyurtmachi tomonidan vaqtincha foydalanishga topshirilgan uskunalar, jihozlar, idishlar, asboblar, mebellar, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni soz holda saqlashi, ta'mirlashi, shuningdek, binolarni ta'mirlushi;

2.2.13. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda, Buyurtmachidan binolarni (xonalarini), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni qabul qilib olishi;

2.2.14. Muzkur sharhnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi, ushbu muddat tugagumiga qadar esa Buyurtmachiga xizmatlarni uzlusiz ko'rsatishimi ta'minlashi;

2.2.15. Muzkur sharhnomaga asosan Xizmatlarni ko'rsatish ishlariga jalb etilgan xodimlarni o'qitishni (mulakasini oshirishni) amalga oshirishi (talab etilgan hollarda);

2.2.16. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatlari ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;

2.3.2. Autsorserning faoliyatiga aralashmagan holda, sharhnomaga shartlarining bajarilishini nazorat qilish;

2.3.3. Sharhnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Autsorserni yozma ravishda ogohlantirish, bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;

2.3.4. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

2.4. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

2.4.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlari bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;

2.4.2. Autsorserga mazkur Sharhnomaga shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarini), uskunalarini, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga berishi;

2.4.3. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

### III. Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

3.1. Muzkur sharhnomaning ilovasiga muvofiq xizmatlar narxi **21 568 040** (Yigirma bir million besh yuz oltmis sakkiz ming qirq) so'm ni tashkil etadi.

3.2. "Buyurtmachi" ko'rsatiladigan "Xizmatlar" turkumi umumiylar summasining 30 %, ya'ni **6 470 412** (Olti million to'rt yuz yetmish ming to'rt yuz o'n ikki) so'm ni miqdorni 3.2.1. 2022 yil dekabr oyida **6 470 412** (Olti million to'rt yuz yetmish ming to'rt yuz o'n ikki) so'm ni

3.2.2. oldindan xaq to'laydi va ko'rsatilgan xar oylik Autsorsing xizmatlari uchun yetkazib berilgan tayyor issiq ovqatlarni yetkazib berish to'g'risidagi dalolatnomalar imzolanganidan keyin, yetkazib berish xizmati summasining 70%, ya'ni **15 097 628** (O'n besh million to'qson yetti ming olti yuz yigirma sakkiz) so'm ni miqdorni

3.2.3. 2022 yil "31" dekabr oyida **15 097 628** (O'n besh million to'qson yetti ming olti yuz yigirma sakkiz) so'm ni

3.3. Autsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.

3.4. Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Autsorser bilan birqalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Autsorser va Buyurtmachi tomonidan imzolanadigan bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiradi.

3.5. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtidan boshlab, 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lмаган miqdorda to'lanadi.

3.6. Mazkur Shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan, shartnomaning prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlari tomonlardan birining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqiladi.

#### **IV. Tomonlarning majburiyatları**

4.1. Autsorser shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan hollarda, Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiylar summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik narxining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.2. Penya (jarima) to'lash Tomonlarning zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf qilishdan ozod etmaydi.

4.3. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablarida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjalarda nazarda tutilgan javobgar bo'ladilar

4.4. Buyurtmachiga har chorakda bir marotaba ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ijara berilgan bino va inshootlarning holatini monitoring o'tkazishga (autsorserning moliyaviy faoliyatiga aralashmagan holda) sharoitlar yaratish.

4.5. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralar O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

#### **V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi**

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etib bo'lmaydigan holatlarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf qilish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

#### **VI. Fors-major holatlar**

6.1. Tomonlar majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holatlar yengib bo'lmash kuch, ya'ni tabiiy ofatlar, tabiiy va texnogen tusdag'i favqulodda holatlar va alohida davr oqibati hisoblansa va davlatning tegishli organlari tomonidan tasdiqlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur shartnoma bo'yicha majburiatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatiga suriladi.

#### **VII. Yakunlovchi qoidalar**

7.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shakldarusmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatlari vakillari tomonidan imzolangandan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismini tashkil etadi.

7.2. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi roziligidan biror bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.

7.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

#### **VIII. Shartnomaning amal qilish muddati**

8.1. Ushbu Shartnoma imzolangan paytdan kuehga kiradi va bir kalendor' yili davomida yoki muddatidan oldin bekor qilinguniga qadar amal qiladi.

IX. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

«Autsorser»

« Mirishkor Osiyo Malak » MCHJ

Manzili: Mirishkor tuman, Jeynov shaharchasi  
SHXR: 20208000005574919001

Tel/faks: +99897-

STIR: 309 930 735

Banki: Mirishkor Agro bank  
MFO: 00184

bankining Toshkent sh. XKKM



Rahbar: D.Berdiyeva.

Mirishkor tuman tibbiyot hirlashmasi

Manzili: Mirishkor t shifokorlar ko'chasi  
SHXR: 100022860102337073102054003

Tel/faks: 652-10-65

STIR: 200701284

G'azna hisob raqami: 23402000300100001010

Banki: Toshent sh. Markaziy

STIR: 201122919 MFO: 00014

Rahbar: \_\_\_\_\_

B.Muxammadjonov.

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyigini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	BAXODIR MUXAMMADJONOV XXX
	Imzolangan sana	15.12.2022 09:55
	Hujjat kodi	NF3406431463
	Hulosa kodi	JD5818832632

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

JD5818832632

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Oziq ovqat dekabr oyida 21 568 040 so'mlik
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Mirishkor tuman tibbiyat birlashmasi tomonidan 14.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Mirishkor tuman  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:



**M.M.Ibrohimov**

14.12.2022